



ONA TILI FANINI ÓQITISHDA 6-SINF ONA TILI DARSLIGINING AHAMIYATI

Sayfullayeva Feruzabonu Sulaymon qizi

Amirova Sevinch Qurbon qizi

Samarqand Davlat Universiteti Kattaqo'rg'on filiali

Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti

Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi talabasi

FeruzabonuSayfullayeva@gmail.com

amirovasevinch@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada 6-sinf óquvchilarining yosh xususiyatlari hamda amaldagi 6-sinf darsligining tuzilishi va mazmuniga oid mulohazalar berilgan. Yangi darslik óquvchilarni nutqiy savodxonligining ó'sishiga xizmat qilmoqda.

Kalit so'zlar: 6-sinf darslik, topshiriq, mashq,matn, nutq kompetensiyasi

Annotation: This article provides feedback on the age characteristics of 6th grade students and structures and content of current 6th grade textbook.

Keywords: textbook,6th grade, assignment,exercise, text.

Аннотация: В данной статье приводятся отзывы о возрастных особенностях учебника для 6 класса.

Ключевые слова: учебник,6 класс, задание, упражнение, текст.

Ma'lumki, ta'lim sifatini oshirishda ta'lim beruvchining ilmiy salohiyati, pedagogik mahorati,ta'lim oluvchining munosabati bilan bir qatorda ta'lim vositalari ham ahamiyatga ega.Ta'lim vositalari orasida eng kôp foydalaniladigani shubhasiz darsliklardir.Amaldagi 6-sinf ona tili darsligi Iroda Azimova,Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Quronov, Shokir Tursun, Nilufar Hakimova,Mansur Siddiqovlar ham muallifligida yaratilgan bo'lib, „Til -muloqot vositasi“, „Shifoxona“, „Qayta ishlanadigan chiqindilar“, „Jigar -eng mehnatkash a'zo“, „Komputer grafikasi“, „Eksport yoki import“, „Qisqacha tarjimayi holim“, „Global isish“, „Ko'z nurini asraylik“, „Dehqon yurtni boqadi“, „Teleboshlovchi bo'lib qolsam“, „Soliqlarni to'lab borasizmi?“, „Raqamlashgan dunyo“, „Yong'in xavfsizligi qoidalari“, „Sayyoralarga gidlik qilsam-chi?“, „Minorai kalon“, „Miniatyura -mo'jaz surat“, „Konstitutsiya-bosh qomusimiz“, „O'z deputatingizni bilasizmi?“, „Mendeleyev



elementlari”, „ Hadislar hikmati”, „Peshtoqdagi bitiklar”, „Buyuk ipak yo‘li “, „ Oqsaroyga bitilgan hikmat”, Davlatni kim boshqaradi?” nomli boblarga ajratilgan 140 soatdan iborat.Darslik ko‘rinishi, dizayni jihatidan 6-sinf o‘quvchilari uchun mos.Shuningdek, o‘quvchilarning mashq va topshiriqlarida foydalanish uchun namunalari keltirilgan.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 6-sinflari uchun darslikning yangi nashri 2022-yilda chop etilgan bo‘lib, mazkur darslik asosan o‘quvchilarni o‘g‘zaki nutqini o‘stirish va ularni fikrlashiga yo‘naltirilgan.Bu darslik to‘rtta kompetensiya va o‘quvchilarning yoshiga mos ravishda metodlardan foydalanib o‘tiladi.Shu bilan birga darslikni o‘rganish jarayonida o‘quvchilar mashqlar orasida notanish bilan so‘zlari lug‘at shaklda berilgan.

Ona tilini o‘rgatish jarayonida o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirish masalasini hal qilishda maktabda ona tilini o‘rgatishga asos bo‘ladigan material alohida qimmatga ega.Materialning g‘oyaviy yo‘nalishi va badiiy ifodaliligi o‘quvchilarning fikrlash faoliyatiga, his-tuyg‘ulariga ta‘sir etadi, atrof muhit haqidagi bilimlarini kengaytiradi, tilga va uni yaratgan xalqqa qiziqishini tarbiyalaydi, o‘quvchilarning umumiy taraqqiyoti darajasini o‘stiradi va ularning shaxsiy sifatlarining dunyoqarashlarining shakllanishiga ta‘sir ko‘rsatadi.

Mazkur darslikning 2017-yildagi versiyasida nazariy mashqlar o‘quvchining nutqini o‘stirishga qaratilgan b‘olishi, undagi qoidabuzarlikni kamaytirish nutq amaliyoti ustuvorligini ta‘minlaydigan mashqlarga keng o‘rin berilishi, har bir mavzu so‘ngida uyga vazifaga matn tuzish uchun mavzu berilgan bo‘lib,bu o‘quvchilar yozma nutqini rivojlantiradi, lekin o‘g‘zaki nutqini shakllantirmaydi.

Og‘zaki nutqini bayon etish uchun darslikda yangicha metodik yondashuvlardan foydalaniladi.

Haqiqatdan ham yangi darsliklar faqat tilshunoslarni yetkazib bermaydi. Yangi darsliklar mazmuniga ko‘ra o‘rta ta‘limni olgan har bir o‘quvchi hayotda o‘z o‘rnini egallab ketishi va o‘rgangan bilimlari nihoyasi davomida qo‘llab bilishi lozim. Shu sababli ham yangi darsliklarning asosiy mohiyati shularni qamrab oladi. Yangi o‘quv darsliklari xalqaro miqyosda o‘rganilib tuzib chiqilgan, ona tili darslarida rivojlantiriladi. Yangi ona tili darsliklarida bu holat ham e‘tiborga olingan. O‘quvchilar matn yaratishga bosqichma- bosqich:so‘z ustida ishlash,gap va uning mantiqiy bog‘lanishi ustida ishlash,og‘zaki hikoya tuzish va uni yozma shakllantirish tarzida maxsus tayyorlanib boriladi.

Prezident ta‘lim muassasalari agentligi tomonidan tizimdagi ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarda foydalanish uchun ixtisoslik fanlari bo‘yicha ta‘lim



dasturlari hamda bir qator darsliklar ishlab chiqilgan.2017–18 yillarga e'tibor solinsa, darsliklar asosan «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi, «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, «O'qituvchi» nashriyot-matbaa ijodiy uyi, «Cho'lpon» nashriyot-matbaa ijodiy uyi, «Yangiyo'l poligraf servis» MchJda chop etilgan.2020 yil 17 martda «Noshirlik va matbaa sohasini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida» prezident qarori qabul qilinadi. Unga ko'ra, 2020 yil 1 oktyabrdan boshlab darsliklar va o'quv-metodik majmualarni nashr etishda narxlar davlat tomonidan tartibga solinishi bekor qilinadi. Ungacha, bajariladigan ishlar uchun 15 foizdan ortiq foyda qo'yish mumkin bo'lmagan.

Bu borada amalga oshirilayotgan ishlar haqida agentlikning O'quv jarayonini metodik ta'minlashni takomillashtirish bo'limi mutaxassislari Dilshoda Norboyeva va Jamoliddin Nurmammedov bilan suhbatlashdi.

Xulosa shuki yangi darsliklar faqat grammatik qoidalar va ularga doir bilimlar bilan cheklanib qolmasdan hayotda qo'llab bo'ladigan zarur ko'nikmalarni ham shakllantirishga qaratilgan. Faqat o'quvchilarda grammatik bilimlarni egallashga emas, ularning nutqini o'stirishga, hayotga zarur bo'lgan, har bir sohaga oid dastlabki ko'nikmalarga ega bo'lishiga ham qaratilgan. O'quvchilarning zerikib qolmasligi uchun qiziqarli matnlar ham berib borilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.B.Mengliyev-filologiya fanlari doktori,professori.
2. D.Yuldasheva -pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
3. S.Sodiqova -Toshkent shahridagi 202-maktabining oliy toifali o'qituvchisi
- 4.Ona tili [Matn]:6-sinf uchun darslik /K.M.Malonova [va boshqa].-Toshkent: Respublika ta'lim markazi,2022.-y
- 5.K.Qosimova va boshqalar „Ona tilini o'qitish metodikasi.Toshkent -2009.
- 6.B.G'ulomov, B.Qobulova Nutq o'stirish mashg'ulotlari.Toshkent .1995
- 7.N.Mahmudov, N.Nurmonov,va boshqalar Ona tili. Umumta'lim maktablarining 6-sinf uchun darslik.
- 8.Tasvir nashriyot uyi.Toshkent:-2017<https://kun.uz/uz/55237554>